

## Gandbol bo'yicha institut birinchiligi

10-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qabul qilingan kuni munosabati bilan "Vatanim madhiyasi - faxrim, g'ururim" shiori ostida gandbol musobaqasi tantanali tarzda start berildi. Mazkur bellashuvda jami 85 nafar iqtidorli talaba-yoshlar o'zaro murosasiz kuch sinashishdi. Musobaqa samarali va sermazmun boshlanib, terma jamoalar o'z mahoratlarini namoyon qildilar. Musobaqaning yakuniy qismida g'olib va sovrindor talaba-yoshlarni institut Rahbariyati hamda Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilari diplom hamda esdalik sovg'alar bilan munosib taqdirladilar.

G'olib jamoalar quyidagicha aniqlandilar:

1. GIM fakulteti terma jamoalari 1-o'rinni,
2. QXM fakulteti terma jamoalari 2-o'rinni,
3. GTQ fakulteti terma jamoalari 3-o'rinni qo'lga kiritdilar.



"Jismoniy tarbiya va sport" kafedrası mudiri M.Norqobilov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov